

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**SABZAVOTCHILIK IXTISOSLIGI BO'YICHA DOKTORANTURAGA
KIRISH IMTIXONI SINOV DASTURI VA BILIMLARINI BAHOLASH
MEZONI**

(06.01.06-Sabzavotchilik ixtisosligi bo'yicha)

Guliston-2021

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2017 yil 16 fevraldagi Qarorida tayanch doktoranturaga qabulni tashkil qilish borasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

“Tayanch doktoranturaga kirish imtihoni uchun ixtisoslik fanlaridan sinov dasturi va tayanch doktorantlarning bilimlarini baholash mezonlari” (06.01.06-Sabzavotchilik (ixtisosligi bo‘yicha) Guliston davlat universiteti “Tuproqshunoslik” kafedrasining 2021 yil 9 oktabrdagi 2-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: I.U.Urazbayev- GulDU “Tuproqshunoslik” kafedrasida professori.
Sh.M.Turdimetov – GulDU “Tuproqshunoslik” kafedrasida mudiri,
dotsent.

Taqrizchi: O‘ Tashbekov – GulDU “Tuproqshunoslik” kafedrasida dotsent.

KIRISH

06.01.06 - Sabzavotchilik ixtisosligi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi yo'nalish bo'lib, u sabzavotlar, kartoshka va poliz mahsulotlarining kelib chiqishi, tarqalish tarixi, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kimyoviy tarkibi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi va soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, mutassaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifati birinchi navbatda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv rejasiga kiritilgan fanlar mazmuni va ularni o'qitish sifatiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan yondashganda tayanch doktorant ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning negizini eng avvalo ularning bakalavriat va magistratura ta'lim bosqichida o'qigan fanlaridan egallagan bilim va ko'nikmalari tashkil etadi.

Sabzavotchilik ixtisosligi bo'yicha "(06.01.06-)" imtihonga kirish uchun ta'lim yo'nalishi O'quv rejasiga asosan 3 ta ixtisoslik fanlari asosida: "Sabzavotchilik", "Himoyalangan yer sabzavotchiligi", "Polizchilik" fanlaridan tuzilgan savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ko'tarilgan dolzarb vazifalar va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy ustuvor yo'nalishlar ham kiritilgan.

SABZAVOTCHILIK fani bo'yicha:

Sabzavotchilikning hozirgi holati va istiqboli. Sabzavotchilikni mustaqillik yillarida jadal rivojlanish sabablari. Sabzavotlar iste'mol qilinadigan qismi kimyoviy tarkibini o'zgarishiga sabablar va ular tarkibi sifatini yaxshilash usullari. Sabzavotlarni botanik ta'rifi, hayotini davomiyligiga kelib chiqqan makonlari ta'siri, oziq-ovqatga ishlatilishi bo'yicha guruhlash. Mavjud sabzavot ekinlari morfologik va botanik tuzilishlarini o'rganishdan maqsad issiqlik, yorug'lik, namlik, tuproq va havo oziqasi ta'sirida o'simliklar filogenezdagi o'zgarishlar. O'sish va rivojlanish bosqichlarini o'tishi davrida tashqi muhit ta'siri. O'sish va rivojlanish bosqichlarini (fazalarini) bir va ikki yillik sabzavotlarda o'sishi uchun zarur bo'ladigan omillar.

Ikki yillik sabzavotlarni hayotini birinchi yili gulpoya chiqarishi yoki ikkinchi yili gulpoya chiqarmaslik sabablari. Rivojlanishi davrida har ikki tur, ko'p yilliklar uchun yorug'lik va kun uzunligi hamda haroratni ta'siri. Tuproq va havo namligini o'simlikni o'sish va rivojlanishiga ta'siri, rivojlanish bosqichida namlikka munosabati.

O'simlik vegetativ va generativ organlarini hosil qilishida, kasallik hamda qurg'oqchilikka chidamli bo'lishida makro va mikro elementlarni ahamiyati. NPK

larni Tuproqqa solish muddatlari va me'yorlari. Ularni urug'idan va vegetativ usulda ko'paytirishlarning ijobiy va salbiy tomonlari. Vegetativ hamda generativ usulda ko'paytirishning ahamiyati, urug'ni ekishga tayyorlash usullari. O'zbekiston iqlim sharoitida sabzavotlarni ekish muddatlari va usullari, ularni turli muddatlarda ekish sabablari. Ertagi sabzavotlar uchun egatni kuzda tayyorlab qo'yish. Sho'rlangan yerlarni ertagi va kechki sabzavotlar uchun tayyorlashning farqi.

Tomatdoshlarni ahamiyati, tarqalishi, tashqi muhit omillariga munosabati va ko'paytirish usullari. Ildizmevalilarni ahamiyati, biologik xususiyatlari va tumanlashtirilgan navlari. Sabzi, turp, osh lavlagi, va boshqalarning kelib chiqqan makoni, harorat, namlik va Tuproq oziqasiga munosabat hamda tumanlashtirilgan navlari. Yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, parvarish qilish va hosilni yig'ishtirish. Piyoz, uning turlari va sarimsoqni kelib chiqishi, tarqalishi, iste'moldagi va oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati, shifobaxshlik xususiyatlari.

Piyozni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabatlar. Ekish normasi, sxemasi, chuqurligi va muddatlari. Begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar qo'llash. Qator orasiga ishlov berish, sug'orishlarni uni rivojlanishiga ko'ra to'g'ri taqsimlash. Sarimsoq yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Karam turlarini farqlari, kimyoviy tarkibi, issiqlik, namlik, Tuproq va havo oziqasiga munosabati hamda ularni sozlash usullari. Karamni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabati, ekish muddati, Tuproq oziqasiga talabchanligi, eqilish qalinligi. Oqbosh va gulkaramni ertagi va kechki muddatlarda yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Bodring va sabzavot qovoqchalari biologiyasi, navlari, ekish muddatlari, sxemasi. Bodringni jadal texnologiya asosida yetishtirishning va hosilini yig'ishtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Bodring va sabzavotlar qovoqchalarini o'tmishdosh ekinlarga munosabati, yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, urug'ni ekishga tayyorlash, yagona qilish, qatorlar orasiga ishlov berish, oziqlantirish.

POLIZCHILIK fani bo'yicha:

Polizchilikning hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari. Poliz ekinlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Poliz ekinlarini sanoat darajasida yetishtiriladigan tumanlari. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan poliz ekinlari turlari, xillari va navlari. Navlarning tuproq-iqlim sharoitiga talabi. Ko'paytirishni intensiv usullari. Standart navlarini tavsifi.

Poliz ekinlarini kelib chiqish vatani, botaniq belgilari, hayotini davomiyligi, iste'mol qilinadigan organlari, ishlab chiqarish hamda boshqa belgilariga ko'ra klassifikatsiyasi va ularni guruhlariga bulish.

Poliz ekinlarini morfo-biologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi. Qovun yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi ko'rashish, hosilni yig'ib olish. Tarruv yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va

zararkunandalariga qarshi ko‘rashish, hosilni yig‘ib olish. Qovoq yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish, hosilni yig‘ib olish. Poliz ekinlar ko‘chatlarini yetishtirishni zamonaviy texnologiyasi. Nav tanlash. Tuproqni tayyorlash, uchastkani rejalash, begona o‘tlarga qarshi ko‘rashish, sug‘orish, o‘g‘itlash va tuproqni yumshatish.

Poliz ekinlarini qator oralariga ishlov berish tizimi. Yerga ishlov berish. Begona o‘tlarga qarshi ko‘rashishda gerbetsidlardan foydalanish. Poliz ekinlarni sug‘orish va o‘g‘itlash usullari va me‘yorlari. Hosilni yig‘ib-terib olish muddati ularning turi va nav xususiyatlariga, mahsulotga qo‘yiladigan talabga va ular qanday maqsadlarda foydalanilishiga qarab belgilash.

HIMOYALANGAN YER SABZAVOTCHILIGI fani bo‘yicha:

Mamlakatimizda aholini sabzavot mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlashni ahamiyati. Sabzavotchilikni tarmog‘ini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar, hukumatimiz farmonlari va qarorlari. «Himoyalangan joy» va «Himoyalangan joy sabzavotchiligi» tarmog‘i haqida tushuncha, uni ahamiyati. Fanning maqsadi va vazifasi. Himoya qilingan joylarda yetishtiriladigan sabzavotlarni ilmiy asoslangan iste‘mol qilish me‘yorlari. Chet davlatlarda va O‘zbekistonda himoyalangan joy sabzavotchiligini ahvoli va uni rivojlanishi. Yorug‘likning ahamiyati va issiqxona sabzavot o‘simliklarining unga bo‘lgan talabi. Yorug‘lik o‘simliklar uchun energiya beruvchi manba hisoblanadi. Tarkibida xlorofil bo‘lgan yashil o‘simliklar nurli energiya yordamida organik moddalarni yaratish, to‘plash qobiliyatiga ega. U o‘z navbatida hosilni shakllantirishni ta‘minlaydi. Yorug‘lik yana nafas olish transpiratsiyasi va moddalar harakati uchun sarflanadigan energiya manbai hisoblanadi.

Himoyalangan yer inshootlarini qoplashda foydalaniladigan yorug‘likni o‘tkazuvchi materiallar va ularga qo‘yiladigan talablar. Himoya kilingan joy sabzavotchiligida qo‘llaniladigan oynalar, ularning tavsifi. Turli oynalarning ko‘rinadigan, ultrabinafsha va infraqizil nurlarni o‘tkazish qobiliyati. Oynaning salbiy va ijobiy xususiyatlari. Parnik va issiqxonalarini qoplashda qo‘llaniladigan oynalar. Yangi istiqbolli yorug‘lik o‘tkazuvchan materiallar. Yarim qattiq va rulon shaklidagi stekloplastik, ulardan foydalanish. Polimer materiallarni mexanik, fizik xususiyatlari.

06.01.06-Sabzavotchilik (ixtisosligi bo‘yicha) tayanch doktoranturaga kirish imtihoni savollarini baholash tartibi va mezonlari.

Kirish imtihonini baholash tartibi

1. Kirish imtihoni yozma va og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

2. Da'vogarlar yozishi og'zaki javob berishda lozim bo'lgan variantlarda 5 tadan savol bo'lib, har bir savol bo'yicha yozilgan va og'zaki javobga maksimal 20,0 balldan ajratiladi.

3. Har qaysi savolga yozilgan va og'zaki javob quyidagicha baholanadi:

20 balldan Har bir savol uchun	Yozgan va og'zaki javobiga qo'yiladigan talablar
18,0-20,0	Berilgan savolga to'g'ri va to'liq og'zaki javob bergan va to'g'ri va to'liq yozilgan. Savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilgan. Savolga javob berishda ijodiy yondoshilgan, javob mantiqiy yaxlitlikka erishilgan.
15,0-17,0	Berilgan javobga to'g'ri og'zaki javob bergan va yozgan. Savolning mazmuni to'liq yoritilgan va og'zaki javob berilgan.. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
11,0-14,0	Berilgan savolga to'g'ri javob yozilgan, lekin berilgan to'g'ri yoritilmagan, savolning mazmunini og'zaki ifodalab berolmagan. Misollar bilan asoslanmagan.
0-10,0	Berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilgan. Savol bo'yicha anik tasavvurga ega emas.

4. Har qaysi savolga qo'yilgan ballar jamlanib, da'vogarning umumiy olgan bali chiqariladi va baholanadi.

ESLATMA: 1. Imtihon jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan da'vogarlar sinov natijalari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojat qilishga haqli

06.01.06-Sabzavotchilik ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni savollari

“SABZAVOTCHILIK fani bo'yicha

1. Sabzavotlardan bodringni tuproqsiz sharoitda yetishtirish texnologiyasi.
2. Kartoshkanin oziq ovqat sifitidagi ahamiyati.
3. Kartoshkaning tashqi muhit omollariga ta'siri.
4. Sabzavotchilikning biologik asoslari.
5. G.I. Tarakanov va V.D. Muxin ta'rificha sabzavot ekinlari nordon tuproqlarga munosabatlariga ko'ra guruhlash.
6. Kartoshka ekinlarni parvarish qilish.
7. Bodring, qovoqchalarning biologik xususiyati.
8. Bodring, qovoqchalar zararkunandalar hamda kasalliklarga qarshi kurash.
9. Pomidor navlari tupi, barglari, to'pguli va mevasi bilan bir-biridan farqi.
10. Gul karam yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
11. Karam navlari vegetativ va hosil organlari (karam boshi)ning qator morfologik belgilari bilan bir-biridan farqi.
12. Ildizmevali sabzavotlarni ekish usullari va muddati.
13. Sabzi navlari bir qator morfologik belgilari bilan bir-biridan farqi.
14. Piyozli sabzavotlarning kasallik va zararkunandalari.
15. Kam tarqalgan sabzavot ekinlar.
16. Sabzavot makkajo'xorisi to'g'risida ma'lumot bering.
17. Sabzavot o'simliklarining havo-gaz muhitiga munosabati.
18. Sabzavot ekinlarining yorug'likka munosabati va uni sozlash.
19. O'simliklarni noqulay harorat sharoitidan himoya qilish.
20. Sabzavot o'simliklari hayotidagi davrlar va fazalar.

“POLIZCHILIK fani bo'yicha

1. Poliz ekinlari urug'chiligi.
2. Lalmikor polizchilik xususiyatlari.
3. Poliz ekinlarining guruhlanishi.
4. Sug'oriladigan yerlarda poliz ekinlarini yetishtirish texnologiyasi.
5. O'zbekistonda polizchilik.
6. Issiqxonalarda qovun va tarvuz yetishtirish.
7. Poliz ekinlarining biologik xususiyatlari.
8. Poliz ekinlarining tuproq unumdorligiga talabi.
9. Texnik qovoqdosh ekinlar.
10. Manzarali qovoqdoshlar.
11. Tarvuz o'simligining nav xususiyatlari.
12. Qovoq o'simligining nav xususiyatlari.
13. Qovun o'simligining nav xususiyatlari.
14. Poliz ekinlarining almashlab ekishdagi o'rni va ularning o'tmishdoshlari.
15. Poliz ekinlarining joylanish va oziqlanish maydoni.
16. Poliz ekinlarini yetishtirishda o'sishni boshqaruvchi moddalar va mikroelementlarni qo'llash.

17. Poliz ekinlarda uchraydigan kasallik va zararkunandalar va ularga qarshi kurash.
18. Poliz ekinlarini ekish zichligi, oziqlanish maydoni, mahsuldorligi va urug' hosildorligini topish.
19. Poliz ekinlari urug'chiligi.
20. Yetishtirish sharoitlari va agrotexnik tadbirlarining urug' sifatiga ta'siri.

“HIMOYALANGAN JOY SABZAVOTCHILIGI” fani bo'yicha

1. Himoyalangan yer sabzavotchiligining vazifasi.
2. Issiqxonalarda mikroiklimni sozlash.
3. Himoyalangan joylar uchun joy tanlash.
4. Parnik-ko'chatxonalarni tayyorlash.
5. Himoyalangan yerlarda ko'kat sabzavotlarni yetishtirish.
6. Hidropon teplitsalar turlari va ularning tavsifi.
7. Kichik hajmli gidroponikani avzalligi va tarqalishi.
8. Kichik hajmli gidroponikada qo'laniladigan substratlar tavsifi.
9. Hidropon issiqxonalarda ozuqali eritmalar.
10. Himoyalangan yer maydonlaridan unumli foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 47 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 485 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 103 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

6. I.A.Karimov «Erishilgan yutuqlarini mustahkamlab yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim», "Qishloq hayoti gazetasi", Toshkent 2006y. 14 fevral

7. Qishloq xo‘jaligida islohatlarni chuqurlashtirishga doir Qonun va me‘yoriy xujjatlar to‘plami. I-II tomlar, Mualliflar jamoasi, Toshkent, "Sharq" nashriyot matbaa konserni. 1998 y.

8. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari «Davlat Reyestri» Toshkent 2006y.

9. Littl T., Xillz F. Qishloq xo‘jaligi dala tajribalari. Kolos, 1989, 319 b. O‘quv qo‘llanma.

10. Maksimov V.N. Biologiya fanida kup omillik tajriba. Moskva. 1989, 279 b. O‘quv qo‘llanma.

11. Peregudov V.N. Hosil ashyolarini statistiq ishlov berish yo‘llari uslubiyati. Moskva, Kolos, 1988. O‘quv qo‘llanma.

12. . Morozova G.S, - “Vinogradarstvo s osnovami ampelografii” Moskva VO “Agropromizdat”, 1997.

13. Temurov Sh.S. - “Uzumchilik” Toshkent 2002..

14. Bo‘riyev X.Ch. - “Havoskor bog‘bonlarga qo‘llanma” Toshkent 2002.

15. www.gov.uz

16. www.lex.uz

17. <http://www.Agron.planning/>.

18. <http://www.bfpais.ru>.

19. http://asiaxx.narod.ru/map_admin.htm.

20. <http://www.CNSHB.ru>.

21. <http://uzbekistan.uzpak.uz/F53.html>.

22. Ostonakulov T.E. Zuyev V.I. Qodirxo‘jayev O.K. Sabzavotchilik T., “N.Doba” 2009. (darslik).

23. Zuyev V.I., Ataxodjayev A.A., Qodirxo‘jayev O., Asatov Sh.I., Akromov U.I. Himoyalangan joy sabzavotchiligi. T., “Iqtisod-moliya” 2014. (darslik).

24. Zuyev V.I., Abdullayev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. T., «O‘zbekiston», 1997. (darslik).

25. Zuyev V.I., Bo‘riyev X.Ch. Qodirxo‘jayev O.K. Azimov B.B. Kartoshkachilik T., «G‘ofur G‘ulom nomli nashiryot-matbaa ijodiy uyi», 2016. (darslik).

26. Bo‘riyev X.Ch, Zuyev V.I., Qodirxo‘jayev O.K., Muhamedov M.M. «Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari» T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2002. (darslik).

27. Azimov B.J., Bo‘riyev X.,Ch. Sabzavot ekinlari biologiyasi. T., «UzMYeDIN» 2002.

28. Nuriddinov A.A., Boqiyev A.B., Bako‘ras N.S va b. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik spravochnigi. T. 1987.

